

Axmedov Akmal Yusufovich
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
akmal0086ahmedov@gmail.com

To'lanboyeva Mohlaroyim Bahrombek qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi
tolanboyevamohlaroyim320@gmail.com

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Muallif kommunikatsiya tushunchasining mazmunini ochib beradi, uning tarkibiy qismlari va faoliyat shakllarini aniqlaydi. Pedagogik kompetentlikning mohiyati, kommunikativ kompetentlikning verbal va noverbal ko'rinishlari, shuningdek, muloqotdagi psixologik masofa va rollar o'zgarishi orqali samarali muloqotga erishish yo'llari yoritiladi. Xulosa sifatida, kommunikativ kompetentlik tug'ma emas, balki ijtimoiy-kommunikativ tajriba orqali shakllanuvchi qobiliyat ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ kompetentlik, Pedagogik kompetentlik, Muloqot madaniyati, Verbal va noverbal kommunikatsiya, Kompetentsiya va kompetentlilik, Psixologik masofa, Faoliyatli yondashuv, Monologik, dialogik, polilogik shakllar, Ijtimoiy-psixologik prognoz, Ta'lim texnologiyalari.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы формирования коммуникативной компетентности у будущих педагогов. Автор раскрывает содержание понятия «коммуникация», определяет её структурные компоненты и формы деятельности. Освещается сущность педагогической компетентности, вербальные и невербальные аспекты коммуникативной компетентности, а также пути достижения эффективного общения через изменение психологической дистанции и ролевых взаимодействий. В заключение подчёркивается, что коммуникативная компетентность не является врождённой, а формируется в процессе освоения социально-коммуникативного опыта.

Ключевые слова: Коммуникативная компетентность, Педагогическая компетентность, Культура общения, Вербальная и невербальная коммуникация, Компетенция и компетентность, Психологическая дистанция, Деятельностный подход, Монологические, диалогические и полилогические формы, Социально-психологическое прогнозирование, Образовательные технологии.

DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS AS A PEDAGOGICAL NECESSITY

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing communicative competence in future educators. The author explores the concept of communication, identifying its structural components and modes of activity. The essence of pedagogical competence, the verbal and nonverbal aspects of communicative competence, as well as strategies for achieving effective communication through psychological distance and role shifts, are discussed. In conclusion, it is emphasized that communicative competence is not innate but is formed through the acquisition of socio-communicative experience.

Keywords: Emotional competence, emotional intelligence, competence, empathy, communicative influence, concept of competence, methodology, pedagogical skills, pedagogical

communication, professional competence, professional training, future teacher, social-emotional competence, educational process, emotional awareness, communication skills, personal development.

Kirish.Bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentlik sifatini, ularda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, shuningdek ta'lim-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tatbiq eta olish kompetentligini shakllantirish orqali oshirish muammosi bugungi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi. Shu o'rinda prezidentimiz SH.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatining bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya."Kommunikatsiya" so'zi lotincha "communico" so'zidan olingan bo'lib, "umumiy qilayapman, bog'layapman, muomala qilayapman" degan ma'nolarni anglatadi. "Kommunikatsiya" so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan "kommunikabellik" – "muomala qilishga layoqati bor" ma'nosida, "kommunikabel" – "kirishimli, dilkash" ma'nosini bildiradi, shuningdek "kommunikativ" – ya'ni "kommunikatsiyaga oid".

Kommunikatsiya – bu, birinchi navbatda, faoliyat usuli bo'lib, u insonlarning o'zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi. Demak, kommunikatsiya o'ziga xos o'zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o'zaro yordam ko'rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta'minlanadi. Shuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

E.N.Zaretskayaning fikricha, kommunikativ faoliyat ma'lum tartibda amalga oshiriluvchi izchil harakatlar tizimi bo'lib, ularning har biri xususiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va muomala maqsadi tomon qo'yilgan o'ziga xos "qadam" sifatida ko'rib chiqilishi mumkin". Taniqli tadqiqotchi A.N.Leontevning kontseptsiyasiga tayangan holda, unda "kommunikativ faoliyat"ning, aniq strukturaviy komponentlardan iborat (1.1-rasm) ekanini ko'rish mumkin.

"Kommunikativ faoliyatning strukturaviy komponentlari"
(A.N. Leontev kontseptsiyasi bo'yicha)

Kommunikativ faoliyatning predmeti boshqa insondir		Muloqotga bo'lgan ehtiyoj insonning boshqa insonlarni bilishga va ularni baholash, hamda shu orqali va ular yordamida o'z-o'zini bilish hamda o'z-o'zigabaho berishga bo'lgan intilishidan iborat
Kommunikativ motivlar–muloqotni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad	↔	
Kommunikativ faoliyatning vazifalari – maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida amalga oshiriluvchi turli-tuman harakatlar	↔	Kommunikativ faoliyatning harakatlari – boshqa insonga yo'llanilgan bir butun akt bo'lib, muloqot harakatlarining ikkita asosiy - tashabbusli va javobli kategoriyalariga ega
Kommunikativ faoliyatning mahsuli – muloqot natijasida yaratiluvchi ma'naviy va moddiy xarakterga ega bo'lgan tuzilmaning hosil bo'lishi	↔	Kommunikativ faoliyatning vositalari bu – operatsiyalar bo'lib, ular yordamida muloqot harakatlari amalga oshiriladi

Shuni ham ta'kidlash joizki, yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar, inson nutq ishtirokidagi verbal kommunikatsiya, hamda nutqqa oid bo'lmagan turli belgilar va ramzlar vositasidagi noverbal kommunikatsiyalarni farqlaydilar.

N.Sh.Turdiyev, Y.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.Sh.Temirovlarning "kompetentlilik", "kompetentsiya" tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;
- shaxsning o'quvi, xislatlari, fazilatlar;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;
- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui;
- shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi».

“Kompetentsiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini farqlashda A.V.Xutorskiyning fikri diqqatga sazovor. “Kompetentsiya” – predmet va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan shakllanuvchi shaxsning o'zaro bog'liq bo'lgan sifatlari (bilimlar, qobiliyatlar, malaka va ko'nikmalar, faoliyat usullari) majmuasi bo'lib, ularga nisbatan sifatli va samarali ta'sir ko'rsatish demakdir. Kompetentlilik – kishi tomonidan mos kompetentsiyaga ega bo'lishni anglatib, o'z ichiga shaxsning unga va faoliyat predmetiga nisbatan muloqotini ham qamrab oladi.

Muhokama va natija. “Kommunikativ kompetentsiya», tushunchasi tilshunoslar bergan ta'rifga ko'ra, “shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimi ekanini ta'kidlash lozim. Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so'zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiyasi va taktikalarini, etik va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatda qabul qilingan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan turli sabab va turli vaziyatlarda aloqada bo'lish usullari ifodalanadi”.

M.Sh.Ro'zmetovanning qayd qilishicha, “boshqa tilda so'zlovchilarning kommunikativ kompetentliliigi – bu o'quvchilarning hayotiy, amaliy va nazariy vazifalarni hal qilish uchun boshqa tilni o'rganish jarayonida egallagan bilim, malaka va ko'nikmalaridan foydalanishga tayyor ekanligidir”.

Zamonaviy ijtimoiy va kasbiy sharoitlarda kompetentlilik muloqotini rivojlantirish uni uyg'unlashtirishning qator printsiplal-muhim yo'nalishlarini taqozo qilishi mumkin. Biroq amaliyot uchun “kommunikativ kompetentlilikni to'laqonli rivojlantirish uchun muloqotning xizmatga oid-amaliy yoki rolli, shuningdek, boshqa shaxsiy turlarini cheklash muhim. Odatda, tafovut uchun asos sheriklar orasidagi psixologik masofa bo'ladi, bu “men – sen - kontakt”. Modomiki, gap nafaqat “tashqi” ma'lumotlar, balki birgalikda hal qilinishi kerak bo'lgan xizmatga oid namunali (tipovoy) vazifa haqida borar ekan shaxs sherigiga o'zi, o'z ichki dunyosini namoyon qiladi, bunda sherikka yaqin inson” maqomini beradi, muloqot esa tom ma'noda ishonchli bo'ladi.

Shuningdek, muloqotdagi kompetentlilik, insondan turli uzoqlikdagi psixologik masofada o'ziga kerakli bo'lgan aloqani yaratishga tayyorlik va mahoratni talab qilishi mumkin. Ammo qiyinchiliklarning o'zi aynan pozitsiyaning inertsia hodisasiga asoslangan – sherikning fe'l-atvori, tabiati hamda vaziyatning o'ziga xosligiga qaramay, ulardan birortasini egallaganligi va uni har joyda amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, muloqotdagi kompetentlilik, odatda, eng yaxshisi sifatida biror bir pozitsiyani egallaganligi bilan emas, balki ularning spektriga mos ravishda qo'shilishiga bog'liq. Psixologik muloqotni almashtirishdagi egiluvchanlik – kompetentli muloqotning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Umuman kommunikativ kompetentlilik quyidagi o'ziga xos integratsion xususiyatlardan iborat:

1. Muloqot amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kommunikativ vaziyatni negizini ijtimoiy-psixologik prognozlashtirish.

2. Muloqot jarayonini o'zini ijtimoiy-psixologik dasturlash, bunda kommunikativ vaziyatning o'z-o'ziga xosligiga alohida e'tibor qaratiladi.

3. Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqaruv xususiyatlari bilan amalga oshirish.

Kommunikativ kompetentlilik tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan

turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishning asosida muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi rolli muloqotlarning o'zgarishi yotadi.

Xulosa. Shunday qilib, "kommunikativ kompetentlik" – insonning bilimlari va hissiy tajribasiga asoslangan bo'lib, uning turli vaziyatlardagi muloqot yo'nalishini aniqlay olishi hisoblanadi; bu insondagi uni o'rab turganlar bilan birgalikda samarali harakat qilishning o'ziga xos layoqati bo'lib, aynan o'zini va boshqalarni, shaxslararo muloqotlarning sifati hamda yashash muhitining ijtimoiy shart-sharoitlarida, psixologik holatlarning doimiy o'zgarib turishini anglash orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.В. Хуторской. Компетентностный подход в современном образовании. – Москва: Наука, 2003.
2. И.А. Зимняя. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. – Москва: Исследования образования, 2006.
3. О.Е. Лебедев. Образование для общества: подходы и технологии. – Санкт-Петербург, 2004.
4. М.А. Чошанов. Теория и практика компетентностного подхода. – Москва, 2007.
5. А.Г. Бермус. Компетентность как основа профессионализма. – Образование и наука, №2, 2005.
6. П.Г. Щедровицкий. Педагогическая компетентность: структура и содержание. – Педагогика, 2001.
7. Т.Н. Аксенова Развитие коммуникативных компетенций у студентов педагогического колледжа в процессе изучения психологии.- Россия, г. Чита,
8. Yusufovich, A. A. (2022) Bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishning dolzarb masalalari. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 224-227.
9. Yusufovich A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). Psychological and pedagogical opportunities for the formation of communicative competence in future teachers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.
10. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.